O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT VILOYATI
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-46, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 14-06-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

209203 - SONLI

Obyekt nomi: Академик В. Воҳидов номидаги Республика ихтисослаштирилган хирургия илмий-амалий тиббиёт маркази биноларини реконструкция қилиш	
Buyurtmachi:	XIRURGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
Bosh loyihachi:	"ALFA YUKSALISH PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	018184

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Loyiha topshirig’i, 2024 yilda buyurtmachi “Akademik V. Vohidov nomidagi RIXIATM” DM tomonidan tasdiqlangan va loyiha tashkiloti “Alfa Yuksalish Proekt” MCHJ tomonidan kelishilgan.

1.2. Obyekt bo’yicha nuqson dalolatnomasi, buyurtmachi “Akademik V. Vohidov nomidagi RIXI ATM” DM tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan.

1.3. Binolar texnik holatini tekshirish natijalari bo’yicha xulosa, “Fazoviy konstruksiyalar binolar va inshootlar zilzilabardoshligi ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyasi” MCHJ tomonidan amalga oshirilgan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko’ra obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.2.1. Loyiha tarkibiga ko’ra obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining shartlari.

Havoning tashqi qishki hisoblash harorati – manfiy 14ºC;

Me`yoriy shamol tezligi bosimi – 0,38 kPa (38 kgk/m^2);

Me`yoriy qor yuki – 0,50 kPa (50 kgk/m^2);

Qurilish maydonchasining hisobiy seysmikligi – 9 ball.

3.2. Asosiy loyiha yechimlari.

Loyiha asosida Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi binolarining 5-bloki, Ma’muriy va davolash korpusi, 1 va 8-qavatidagi xonalarini va 8-bloki, Barosentr (kardioxirurgiya), 4-qavatidagi xonalarini va tom qoplamasini rekonstruksiya qilish va jihozlash nazarda tutilgan.

3.3. Arxitektura-rejalashtirish yechimlari.

5-bloki, Ma’muriy va davolash korpusi va 8-blok, Barosentr (kardioxirurgiya).

Ichki va tashqi bezatishda loyiha bo’yicha ko’zda tutilgan:

ichki bezatish:

- devor – suv emulsiyali bo’yoq, maxsus panel, moyli bo’yoq, gul qog’oz, keramik plitkalar va boshqalar;
- shift – suv emulsiyali bo’yoq, armstrong, plastik va boshqalar;
- pol – marmar plitkalar, laminat, keramik plitkalar, keramogranit plitkalar, Relin va boshqalar;
- deraza romlari – alyumin profil va boshqalar;
- eshik – alyumin profil, yog’och (MDF) va boshqalar;

3.4. Konstruktiv yechimlari.

8-blok, Barosentr (kardioxirurgiya).

Tom qoplamasi – po’lat konstruksiyalar asosida “Sendvich” panel.

3.5. Yong’in xavfsizligi.

Evakuatsiya yo’laklar va zina maydonchalari bo’ylab. Evakuatsiya yo’llarida eshiklarni ochishlishi binodan chiqish yo’nalishi bo’yicha. Evakuatsiya yo’llarida ichki va tashqi pardozlash yonmaydigan materiallardan. Binoda yong’in daraklagichlari va favqulodda yoritish tizimi amalga oshirilgan. Tom izolyatsiya materiallari yonmaydigan materiallardan. Tom po’lat konstruksiyalari amalga oshirilgan. Binoda ichki yong’inga qarshi suv ta’minoti amalga oshirilgan.

3.6. Energiya samaradorlik yechimlari.

Deraza romlari issiqlik izolyasiyasi yuqori bo’lgan kamerali alyumin profillardan amalga oshirilgan.

Binoning elektr yoritilishi xonalarning maqsadi va muhitning xususiyatlariga muvofiq energiya tejamkor LED lampalar bilan amalga oshirilgan.

FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Suv ta`minoti va oqova suv tizimi.

Suv ta`minoti tarmog’i Ø25-20 mm polipropilen quvurlardan mavjud tarmoqdan amalga oshirilgan.

Oqova suv tarmoqlari Ø100-50 mm polietilen quvurlardan o’zi oqar qilib mavjud tarmoqqa yo’naltiriladi.

4.2. Elektrotexnik yechimlari.

Loyihalashtirilgan obyekt elektr ta’minoti ishonchliligi bo’yicha II toifali iste’molchilarga tegishli bo’lib, yagona quvvat manbaidan elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Tarmoq kuchlanishi 380/220V. Umumiy hisobiy kuchlanish Pp=13,65 kVt.

Elektr ta’minoti 0,4 kV mavjud tarmoqlardan VVGng markali kabellar orqali amalga oshiriladi. Elektr energiyasini o’lchash mavjud markaziy VRUda amalga oshiriladi.

4.3. Isitish tizimi.

Binoning issiqlik manbai devoriy elektr qozonlar. Issiqlik manbai tashuvchisi 95-70°C parametrli issiq suvdir. Bimetall radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi. Isitish tizimining quvurlari polipropilen quvurlardan o’rnatiladi. Qulaylik uchun xonalarda devoriy Split konditsionerlar ham ko’zda tutilgan. Shamollatish tizimi mexanik va tabiiy qo’zg’atuvchili qilib qabul qilinadi. Tashkillashtirilmagan havo oqimi derazalar orqali.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Buyurtmachi “Akademik V.Vohidov nomidagi RIXIATM” DM Markaz kengashining 2024-yil 15-yanvardagi 1 – sonli bayonnomasi;
- O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi SEO va JSQ Toshkent shahar boshqarmasi 2024-yil 7-maydagi 13-19/1471 – sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra **6 706 272 559** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 044 052 014** so'mga kamaytirilib, **5 662 220 545** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **3 538 542 618** so'm

Asbob-uskunalar: **1 517 011 440** so'm

QQS: **606 666 487** so'm

6.1. Ishchi loyiha buyurtmachi tomonidan ekspertizaga sharhlar, takliflar va e’tirozlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning lokal sharhlari bo’yicha loyiha-smeta hujjatlariga o’zgartirishlar, tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. Qiymat iqtisod qilinishiga, elementlar resurs me’yorlari standartlarini, mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlarini, asosiy qurilish materiallari narxilarni, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va boshqalarni aniqlashtirish orqali erishildi.

Buyurtmachi asbob-uskunalar sotib olayotganda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi 332 – son qarori va O’zbekiston Respublikasi 2021-yil 22-apreldagi 684 – son “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonunga amal qilishi kerak.

6.4. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan, qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. O’zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579 – sonli qaroriga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritib tasdiqlangan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o’z tomonidan berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar. Ushbu talab bajarilmagan taqdirda, loyiha-smeta hujjatlari, buyurtmachiga, to’liq tuzatishlarsiz taqdim qilinsa, ushbu yig’ma ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332 – sonli qaroriga asosan loyiha-smeta hujjatlarinig chegaraviy qiymati “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK xulosasi asosida aniqlanadi.

6.8. Ekspertiza natijalari asosida tavsiya etilgan qiymat shartnoma tuzish va pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'la olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 11-iyundagi 261 – sonli qarori «Obyektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risida vaqtinchalik nizom», Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 31-yanvardagi 46 – son qarori va SHNK 4.01.16-09 ga asosan, tender savdolari uchun, amaldagi meyoriy hujjatlar talablari va boshqalarni hisobga olgan holda ishlarning qiymat buyurtmachi tomonidan qabul qilinadi.

6.9. Buyurtmachi o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-maydagi "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 321 – sonli qarori bandlarida keltirilgan talablar va ko'rsatmalarga muvofiq o'ziga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni to'liq bajarishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **"Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi binolarini rekonstruksiya qilish"** ishchi loyiha kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Qilichev Sherzod Dilshod O'g'li.

Ishtirokchi ekspertlar: Karabayeva Dilfuza Xudaybergenovna, Qilichev Sherzod Dilshod O'g'li